

ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGATISH USULLARI

Surxondaryo viloyati Termiz shahri

12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Rahmonova Sabohat Jumayevna

Annotasiya: Maktablarda ona tili darslarida o‘quvchilarga so‘z turkumlarini o‘rganish va “Fe’l” so‘z turkumini o‘qitishdan iborat.

Kalit so‘zlar: So‘z turkulari, fe’l, shaxs-son va zamon qo‘shimchalari, tub va yasama, sodda va qo‘shma fe’llar, fe’l nisbatlari, fe’lning ma’noviy guruhlari

Abstract: In Native Language classes in schools, students learn vocabulary and teach verbs.

Keywords: Word groups, verbs, person-number and tense suffixes, primitive and artificial, simple and compound verbs, verb ratios, verb semantic groups

«Fe’l» so‘z turkumi xususidagi dastlabki ma’lumotlar boshlang‘ich sinflarda va «V» sinfda «Muqaddima» bo‘limi orqali beriladi. Shuning uchun mazkur so‘z turkumini o‘rganishdan oldin egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalar takrorlanadi. VI sinfda fe’llarning lug‘aviy shakllari va ma’no guruhlari o‘rganiladi. O‘quvchilar «Tub va yasama, sodda va qo‘shma fe’llar», «Fe’llarning umumiy xususiyatlari», «Fe’l nisbatlari» (aniq nisbat, ortirma nisbat, majhul nisbat, o‘zlik nisbat, birgalik nisbat), «Nisbat qo‘shimchalarining so‘z yasovchilar bilan yaxlitlanishi va takror qo‘llanilishi», «Fe’lning vazifa turlari» (harakat nomlari, sifatdoshlar, ravishdoshlar), «Harakat tarzi shakllari», (yurish-harakat fe’llari, nutq fe’llari, tafakkur fe’llari, natijali faoliyat fe’llari, natijali faoliyat fe’llari, holat fe’llari singari mavzular bilan tanishadilar.) O‘quvchilarning so‘z zahirasini fe’llar bilan boyitishning muhim choralaridan biri fe’l-sinonimlar ustida ishlashdir. Berilgan fe’llarga ma’nodoshlar topish (masalan, ajablanmoq, taajjublanmoq, hayron bo‘lmoq; ayirmoq, ajratmoq, judo qilmoq, mahrum qilmoq), sinonimik uyadagi ma’nosi tushunarli bo‘lmagan so‘zlarning ma’nosini izohlash,

qatoridagi har bir soʻz yordamida gaplar tuzish (masalan Muslimaxon berilgan soʻzlar ichidan feʼllarni ajratdi. Bozorga olib ketilishi lozim boʻlgan mevalarni bir yoqqa ayirdi), matnni tahrir qilib, takrorlangan feʼllar oʻquvchilarning soʻz zahirasi oshirishda oʻta muhimdir. Bizga maʼlumki, taʼlim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning oʻrni juda muhim. Bu metodlar yordamida qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish mumkinligi hech kimga sir emas. Shu boisdan ham zamonaviy taʼlimda interfaol metodlarning katta eʼtibor qaratilmoqda. Mazkur metodlar oʻz mohiyatiga koʻra oʻquvchilarda bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, oʻrganilayotgan mavzu, muammolar boʻyicha shaxsiy qarashlarini erkin ifodalash, oʻz fikrlarini dalillar bilan asoslash, mulohazalar orasidan eng kerakli yechimni tanlab olish koʻnikmalarini shakllantira olishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Interfaol tushunchasining mazmun-mohiyatiga toʻxtaladigan boʻlsak, uning asosini “ikki taraflama harakat qilmoq”, “ish koʻrmoq” kabi maʼnolar tashkil etadi. Demak, bu metodlar ham oʻqituvchining, ham oʻquvchining faolligiga asoslanadi. Bugungi kunda ona tili darslarida interfaol taʼlim metodlaridan foydalanish bu fan doirasida juda kata yutuqlarga erishish imkonini bermoqda. Ayniqsa, soʻz turkumlariga oid mavzularni bu kabi yangi texnologiyalar yordamida yoritib berilishi oʻquvchilarning Morfologiya boʻlimiga oid bilimlarini yangicha qarashlar, xulosalar, nazariy bilimlar bilan boyitib boradi. Ona tili darslarida “Soʻz turkumlari” mavzusini va mohiyatini ochib berishda bir nechta interfaol metodlarga toʻxtalib oʻtamiz. “Klaster”. Klaster” grafik organayzeri “Fikrlarning tarmoqlanishi” degan maʼnoni anglatadi. Bu metod turi oʻquvchilarning biron-bir mavzuni chuqur oʻrganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bogʻlangan ketma-ketlikda tarmoqlashni oʻrgatadi. “Fikrlarning tarmoqlanishi” quyidagicha tashkil etiladi: 1. Xayolga kelgan har qanday fikr bir soʻz bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi; 2. Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa, u holda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizib turiladi; 3. Darsda imkon boricha fikrlarning va oʻzaro bogʻliqlik ketma-ketligini koʻpaytirishga harakat qilinishi lozim. Ona tili darslarida

“So‘z turkumlari” mavzusini yoritishda “Klaster” usuli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu metod orqali o‘quvchilar mavzuga oid tushunchalar ustida ishlaydi. Masalan, sifat so‘z turkumiga oid tushunchalarni ular quyidagi tartibda tarmoqlarga ajratishlari mumkin: “Klaster” usulida so‘z turkumlari tushuntirilganda o‘quvchining diqqatini shu mavzuga qaratish maqsadida markazga so‘z turkumlariga oid tushunchalar yoziladi. O‘quvchilarlar mavzuga oid barcha fikrlarini markazning atrofiga joylashtirib yozadilar. Fikrlar bayon etilgandan so‘ng har bir fikr yoki so‘zni toifalarga ajratib chiqadilar. Sifat darajalari Orttirm a daraja Oddiy daraja qiziqro q chiroyli uzunroq odobli shirin qiyinroq Qiyosiy daraja “Klaster” usuli quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladi: 1. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish; 2. Yozma nutqni takomillashtirish; 3. Fikrlash qobiliyatini shakllantirish; 4. Toifalarga ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish. So‘z turkumlari mavzusi ona tili ta’limida salmoqli o‘ringa ega bo‘lgani bois mazkur mavzularni qiziqarli va sodda, tushunarli tarzda bayon etish maqsadga muvofiq sanaladi. So‘z turkumlari va ularning tasnifini bilmasdan turib ona tilining boshqa bo‘limlarini o‘zlashtirish o‘quvchilar uchun qiyin kechadi. So‘z turkumlari haqidagi bilimlarni o‘quvchilarga oson va qulay yetkazishning yana bir samarali usuli “Beshinchisi ortiqcha” usulidir. Ushbu usulda so‘zlar o‘quvchilarga ketma-ketlikda beriladi. Ular bu ketmaketlikdagi ortiqcha so‘zni belgilashlari lozim bo‘ladi. Masalan: Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi: 1. O‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi; 2. O‘quvchilar mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar; 3. O‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar. yolg‘iz saraton soniya idora odam chuchuk Badbo‘y nordon achchiq shirin Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida

foydalanish mumkin. Xullas, ona tili ta'limida bu kabi metodlar va usullardan foydalanish dars davomida o'quvchilarning faolligini ta'minlash bilan bir qatorda ularni mavzu doirasida mustaqil fikrlashga hamda o'z g'oyalarini dadil ifodalashga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botirova, S. I. (2020). PROBLEMATIC ASPECTS RELATED TO THE USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS IN THE CLASSROOM. EPRA International Journal of MULTIDISCIPLINARY RESEARCH (IJMR), 6(8), 539-541.

2. Botirova, S. I. (2020). FOR STUDENTS OF PHILOLOGY TEACHING LITERARY CONDITIONS OF LEARNING BASIC ANALYSIS. Science and Education, 1(5), 110-113.

3. Isamiddinovna, B. S. (2020). THE RELATIONSHIP BETWEEN SYMBOLICALLY FIGURATIVE INTERPRETATION AND PSYCHOLOGY. Asian Journal of Multidimensional Research, 9(9), 12-15.

4. Ботирова, Ш. (2020). Бадий психологизм критерийлари ва замонавий ўзбек романчилиги. Tafakkur ziyosi, 2(2), 146-148.

5. Шахло, Б. (2020). Инсон ва ҳаёт воқелигини метафорик уйғунлаштиришда бадий психологизмнинг ўрни. Сўз санъати, 2(3), 19-23.

6. Badalova, B. (2020). Modern Methods of Teaching Russian and Uzbek as a Foreign Language to Students.